

Mirzo G'olib she'riyatida falsafiy dunyoqarashning aks etishi

Madalimov Timur

ToshDShI magistranti

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ushbu xalq tarixiga chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yuksaltirishga hizmat qiladi.¹

Hindistonning yangi davr musulmon falsafasida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan shoir va ilohiyotchi Mirzo G'olibdir. Uning asl nasl nasabi O'rta Osiyodan bo'lib, uning ota-bobolari asli Samarqandlik edi. Keyinchalik uning otasi Samarqandni tark etib Hindistonda Boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda harbiy qo'mondon edi. Faylasuf o'zining ellik yillik ijodi davrida ona vatanni, hazrati insonni hamda baynalminallikni tarannum etdi. G'olib ijodida qarama-qarshilik mavjud bo'lsa—da uning g'oyalari realistic hamda optimistic ko'rinishda edi. G'olibning falsafiy-axloqiy qarashlari shaklan islom ruhida bo'lgan. Bunga albatta O'rta Osiyoda shakllangan tasavvuf falsafasining o'rnini beqiyosdir. Shunday bo'lsada, uning qarashlari tamomila musulmon falsafasi bilan qorilgan deyish, xato fikr hisoblanadi. Ya'ni G'olib o'zi istiqomat qilgan mamlakat falsafasini to'liq o'rganmay turib, o'sha jamiyat haqida o'z nuqtai nazarini bildirgan bo'lardi. Faylasuf Mirza Abdullahon G'olib 1797-yil 27-dekabrda Dehlidan uncha uzoq bo'lmagan Agrada dunyoga kelgan. G'olibning otasi urushlarning birida vafot etgandan so'ng, u keyinchalik onasining otasi—bobosi tarbiyasiga o'tadi. G'olib o'n uch yoshga yetganida Lahor knyazligining obro'li xonadonlaridan biriga kuyov bo'ladi.² Yangi qarindoshchilik G'olibga Boburiylar imperiyasiga yaqinlashtirdi. Lekin yosh nikoh dastlab baxtli hayot kechirishmadi. Birin ketin farzandlari vafot eta boshladi. G'olib o'zining Orif ismli o'g'lini yaxshi ko'rib unga marsiya ham bag'ishlagan. G'olib bobosidan qolgan nafaqa puliga tirikchilik qilardi. Taqdir hukmi bilan keyinchalik bu nafaqadan ham mosuvo bo'ladi. G'olib bo'ynigacha qarzga kirib ketadi. Lekin ingliz hukumati marhamati va qonunchiligi

¹ Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2008.-30b

asosida G'olib yana bobosidan qolgan merosga egalik qila boshlaydi. Qo'lga kiritilgan gonorar evaziga u Kalkutta Dehli shaharlariga boradi. G'olibning qilgan sayohati davri shunday davr ediki, ayni shu davrga kelib ingliz hukumati Hind yerida yangi sanoat inqilobini amalga oshirayotgan payt edi. G'olib turonlik faylasuflardan birinchilardan bo'lib Bunday sanoat to'ntarishining natijalari—paravoz, gugurt, bug, mashinalarini o'z ko'zi bilan ko'rganlardan edi. Garchi ingliz hukumati mamlakatni egallayotgan bo'lsa-da, jamiyatlardagi bo'layotgan islohotlar va yangiliklardan quvonayotgan edi. Xattoki, G'olib inglizlarning bunday mo'jizalarini birinchilardan bo'lib, jaridalarda bitgan ma'rifatparvarga ham aylandi. Hindlarning muqaddas shahri Banoras shahriga kelganida uning ko'ngli kemptik bo'ladi —u bu yerda juda ko'p g'arib-u nochorlarni ko'radi.

G'olibning mashhur homiylardan biri—shoir Shoifta edi. [adabiy taxallusi Xazrat] U o'z asarlarida o'z homiysini tez-tez eslab turardi. G'olib o'n besh yoshida she'r yozishni boshlaganida darhol Dehlidagi mushoira davralarning nigohiga tushadi. Mushoiralarda faylasufning she'rlari hamda uning ibratli so'zlari har doim ham tushunarli bo'lardi; forsdagi she'rlari shirali va yoqimli, urdudagi esa —xalqchil va ommaga tushunarli bo'lardi. Albatta bunday mushoiralarda falsafiy bahslar ham bo'lib turardi. Har bir she'r yoki ibratli fikrdan keyin, unga qarshi chiqadigan oppozitsion kuch ya'ni tanqidchilar guruhi ham mavjud edi. [Hozirgi Hindiston hukumatida ham har jabhada siyosiy sohada ham ma'rifiy sohalarda ham oppozitsiyon guruhlar tashkil qilingan. Bunday bahslar juda shiddatli va muhokamaga boy bo'lardi. Opponentlar faylasuf shoirlarning fikrlarini qattiq tanqid ostiga olardi. Lekin Faylasuf G'olib bunday fikrlarga o'zining quyidagi mulohazalarini keltirardi; „Barabanning ovozi naqadar baland bo'lmasin, lekin xalq yoqimli bo'lgan changa³ni afzal ko'radi.

G'olib ellik yoshga kirganida uning ahvoli yanada yaxshilandi. 1850 yilda U Boburiylar hukumati qarorgohi keladi va 1854-yil u imperator maslahatchisiga aylanadi. Bahodirshoh II G'olibni uchinchi darajali faxriy nishon bilan taqdirlaydi (Qancha baland bo'lsa shuncha faxrli). O'zining so'nggi kunlarini faylasuf Dehlida o'tkazadi.

Gʻolibning ilmiy merosi boy. 1841-yilda Uning „Urdu devoni “ chop etilgan boʻlib, u chamasi sakkiz ming baytdan iborat. 1863 yilda esa Gʻolibning „Intihob urdu“ nomli urdu tilidagi toʻplami nashr etildi. Fors tilidagi asari 1845-yil „Kulliyot nazm va forsiy“ nomi bilan chiqarilib, yigirma besh ming baytdan iborat. Bundan tashqari Gʻolibning „Sabadchin“ nomli asari uning oʻlimidan keyin nashr etildan. Bundan tashqari Gʻolibning xatlari urdu adabiyotida oʻz ahamiyati ega. Xat sanʼatida Gʻolib anʼanaviy usuldan voz kechadi, u xattotlik sanʼatiga yangi yoʻnalishni olib keladi. Garchi Gʻolib oʻz ijodida Mirzo BEDIL nazariyasiga asoslangan boʻlsa-da lekin u toʻligʻicha bedilizmdan xalos boʻlishga harakat qilgan. U oʻzining ijodida alohida yangi yoʻnalishni qidiradi. Aynan shu yoʻnalish asosida falsafiy muammolarni koʻtarib chiqdi. Gʻolib oʻzining sheʼrlarida kitobxonlarga shʼeriyatning bahosi va uning qadri haqida ham quyidagilarni aytib oʻtgan.

Mirzo Gʻolib oʻzining sheʼriyati orqali nafaqat hind xalqining balki Markaziy Osiyo xalqlarining qalbiga chuqur kirib bordi. Qadimgi Hindistonda bitilgan falsafiy kitoblarni tahlil qiladigan boʻlsak, ularni tili qiyin hamda tushunarsiz edi. Garchi Mirzo Gʻolib asarlari atayin falsafiy asar sifatida yozilmagan boʻlsa-da, uning sheʼrlarida falsafiy muammolar ham keltirib oʻtilganini his qilish mumkin. Bundan tashqari Gʻolibning tili sodda va shirali va eng asosiysi xalq diliga oson kirib boradi. Binobarin, uni nafaqat hind va urdu balki, oʻzbek xalqining buyuk faylasufi deb atashga haqlimiz. Uning oʻzbek tiliga tarjima qilingan gʻazallarining asosiy mazmuni oʻzlikni anglashdan iborat edi. Quyidagi gʻazalni falsafiy tahlil qilib koʻrib koʻramiz:

„Desam, Gʻolib, yerim –pok hoki Turon
Asil zotim bilan bagʻrim farahmand
Oʻzim turkzodayu naslim-da turkzod
Buyuklar qavmi birla asli payvand“

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot oʻzining falsafiy qarashlarida „Oʻz-oʻzingni anglagin va bilgin“ deb aytgan. Gʻolibning yuqoridagi sheʼrida oʻzlikni anglash va asliyat haqida fikr yuritilgan.

Sheʼriyat –har doim Hindistonning maʼnaviy hayotining ajralmas bir qismi boʻlgan. Sheʼriyat nafaqat koʻngilochar bir manbaa boʻlib qolmay, unda pand-nasihat

hamda axloqiy masalalar ham ko'tarilar edi. XIX asr boshlarida urdu adabiyoti rang-barangligi bilan ajralib turgan. Mirzo G'olib fikricha „ Mirzo G'olibgacha ham she'riyat rivojlangan bo'lib, Mir Toqi Mir[1724-1810], Nazir Akbarobod[1740-1830]lar shular jumlasidandir. G'olib asarlari urduda yozilgan bo'lib, keyinchalik uning fors tilidagi ijodi yakun topdi, sababi, asosiy til ingliz tiliga o'zgardi. Zullisonayn faylasuf G'olib bu haqda shunday yozadi:

„Ko'rarsen ranggo dunyoni

O'qib forsiy so'zimni

Urduda bitib devonni

Anglay olmadim o'zimni⁴

U o'zining ijodida alohida yangi yo'nalishni qidiradi. Aynan shu yo'nalish asosida falsafiy muammolarni ko'tarib chiqdi. G'olib o'zining she'rlarida kitobxonlarga she'riyatning bahosi va uning qadri haqida ham quyidagilarni aytib o'tgan.

„ Biz she'rimiz bilan birga o'zimizga ham narx qo'yamiz , lekin savdolashishdan oldin xaridorni bahosini ham bilib olamiz''.

G'olib she'riyatni inson qalbini jumbushga keltirishini istagan,, shoir she'r to'qishi emas aksincha she'rning o'zi inson qalbidan chiqishini istagan. G'olib doim insonlarni haqiqatni gapirishga undagan.

Qonli qalbim yarasiga sanchib har bir tikonni

Yig'ib to'plam ila qilib cho'l-u bo'stonni

G'olibning she'rlarida insonning tabiat bilan uzaro aloqalari haqida ham so'z yuritilgan. G'olib fikricha tabiat so'qir va maqsadsizdir u insonga beminnat hizmat qiladi. Lekin inson har doim undan o'zining maqsadi yo'lida harakat qiladi. U kelajakda tabiat insonlar tomonidan sahro aylantirib qo'yilganini ko'rsatib o'tadi. G'olib ning nigohida har doim jamiyat o'lib borayotgandek tuyulardi. Ertangi kun uchun hech qanday ishonch yo'q edi. Qanchalik achchiq bo'lmasin lek, G'olib har doim haqiqat ko'ziga tik boqishga intilardi. G'olib o'z falsafasida insonning individual fikri haqida so'z yuritib, har qanday fikr o'zining qadr-qimmatiga ega deb aytgan. Taqdir qanday

⁴Izoh; she'r muallif tomonidan tarjima qilingan. Boshqa original tarjimasi bo'lishi mumkin.

sinovlarga duchor etmasin, javobsiz muhabbat yoki bo'lmasa, eng xavfli dushman unga xavf solmasin baribir inson individualligi, va uning qat'iyyati bu uning eng katta kuchi bo'ladi. G'olib introvert faylasuf bo'lib, borliqqa nisbatan doim o'zining munosabatini va havotirini bildirib turadi. U doim yerdagi ya'ni „o'zining jannat“ini qidirishga harakat qiladi. Dogmalarga also yon bosmaydi. U har qanday muohazani aql yordamida bajarishga harakat qiliadi. „Aql- qorong'udagi nurdir va aksincha tonggi yulduzdir. G'olib o'z she'rlarida har qanday narsalarning mohiyatini qidirishga harakat qiladi. Mohiyat va shakl haqidagi uning qarashlari uning estetikasini ochib berishga muyassar bo'lgan. G'olib uchun mohiyat va shakl bu xuddi „go'zallik va parda“ kabidir. Inson go'zalligining namoyon bo'lishi va uning mohiyati ayon bo'lishi, shoirga har qanday jonli mavjudotni qadr-qimmatini tushunishga ishonch hosil qiladi. G'olibning ijtimoiy qarashlarida inson va jamiyat o'rtasidagi muammolarni keltirib o'tadi.

„Men yaxshimi yoki yomonanmi bu mening hizmatimga bog'liq emas, Agar men atirgul bo'lsam meni gulxanga otishadi. Agar men somon bo'lsam, meni gultuvakka qo'yib e'zozlashadi“. Bu fikrlar bilan G'olib jamiyatdagi noroziliklarga o'z e'tirozini bildirgan. Shunday bo'lsada u o'z fikrini davom etib shunday deydi: „Butun bir borliq faqat insonlar uchun yaratilgan“ Bundan kelib chiqadiki G'olib falsafada antrosentrik nazariya tarafdorlardan biri edi. G'olib shuningdek taqdir masalasiga to'xtalib o'tadi. Taqdir zarbalari inson uchun doim kerak- deydi G'olib- chunki taqdir zarbalari insonning hissiyotlarini mustahkamlaydi. G'olib jamiyatdagi milliy va diniy nizolarni bartaraf etishga urinadi. U bir millat ikkinchi bir millat bilan doim bir hil munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. „Menga boshqa millat vakilini olib keling men u bilan birga dardlashaman“ –derdi faylasuf. Mirzo Asadullahon nafaqat o'z dardini baholay olgan aksincha o'zgalar tashvishini ham o'z dardidek baham ko'rgan.

Ana shunday g'oyalar ruhida tarbiyalangan Hindiston hozirgi kunda qashshoqlikka qarshi kurashda boshqa kambag'al davlatlarga na'muna bo'lmoqda.